



“Tafakkur karvonlari” o’zlikni anglashga chorlov

Abduvahob Zaripov SamDU magistranti

Insoniyat tafakkurning tarixi umuminsoniy, umumjahoniy, binobarin, azaliy va abadiy mavzulardandir. “Nur – sharqdan” deb aytilgan ekan qadim yunon naqllaridan birida. Bunda, albatta, olam-olam ma’no bor. Haqiqatdan ham quyosh sharqdan chiqadi. Aql quyoshi – ma’rifat ham Sharqda tug’ilib, g’arbga tomon yo’l olgan. Buning ajablanadigan joyi yo’q.

Hazrat Abdurahmon Jomiy ham bir o’rinda, agar kishi boylik istasa Hindistonga borishini, poklanish va ma’rifat istasa Makkaga ziyorat qilishini, gar har ikkisini da’vo qilsa Samarqndda yashashini taklif qilganlar. Lekin gap shundaki, Sharq olamiga ziyo berib, uni go’zal etgan tafakkur tug’ilgan joyida qolib ketmadi. Umuminsoniyatning aql-shuuri, mushtarak mulki sifatida zamonlar osha g’arbga ham yetib bordi.

Adabiyotshunos olim filologiya fanlari doktori prof. Najmiddin Komilovning ilmiy-adabiy merosiga nazar tashlar ekanmiz olimning adabiyotshunoslik ilmidagi o’rni qanchalar buyuk ekanligini bilib olamiz. O’zligimizni anglashimiz yo’lida amalga oshirgan ishlari juda ulkanligi sir emas. Qiyosiy adabiyotshunoslik ilmining daholaridandir. Fanda “Yevroposentrizm” g’oyasi hukmron bo’lgan bir paytda bu g’oyani inkor etuvchi dalillarni keltirgan va “Nur Sharqdan ” ekanligini ilmiy asoslab bergan olimdir.

Olim dastlab tarjima va qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima tarixining nazariy masalalari bo’yicha tadqiqotlar olib bordi. Matnshunoslik va adabiy janrlar taraqqiyoti bilan bo’g’liq masalalarni o’rgandi. Keyingi yillarda uning ilmiy faoliyati tasavvuf tarixi asosiy yo’nalishlari tariqat, shariat, haqiqat tushunchalariga qaratildi. Shu yo’nalishda u Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Ibn Arabiy, Nasafiy, Bahovuddin Naqshband ta’limotlari mohiyatini ochib berdi.

O’zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov “Kitob dunyosi” gazetasida o’zining Najmiddin Komilov haqidagi “Teran daryo sokin oqar” maqolasida ham olimning o’zligimizni tanishda asl mohiyat nimada ekanligini anglashimiz yo’lida qilgan xizmatlarini alohida ta’kidlab, shunday yozadi:

“Navoiy barcha g’azal va dostonlarida majoziy ishqni vosita qilib ilohiy ishqni kuylagan ekan! Ana shu boradagi ma’rifiy ishlarni birinchi bo’lib boshlagan, avval maqolalar yozib jiddiy ishlar olib brogan, keyin esa ikki jildlik “Tasavvuf” kitobini yozib so’ng hazrati Navoiy asarlari sharxiga kirishib ma’nolar olamiga jiddiy safar qilgan olim Najmiddin Komilov bo’ldi. Najmiddin Komilovning mumtoz she’riyatning irfoniy ma’nolari haqidagi ilk maqolalarini o’qiganimizda biz uchun yangi bir olam ochilgandek bo’lgan edi”.

Olim nafaqat o’zligimizni anglatish yo’lida sharq mutaffakirlarining boy merosini o’zimizga tanitdi. Balki ularning me’rosi g’arb madaniyatiga sezilarli ta’sir etganligini manbalar asosida qiyoslab isbot qildi. Bir umrlik igna bilan quduq qazimoqlikka teng mashaqqatli izlanish va tadqiqotlar mahsuli “Tafakkur karvonlari” bunyod bo’ldi.

Professor N.Komilov ushbu asari bilan bizning aslimizni tanitishga, u orqali o’zligimizni anglashga yo’l ko’rsatadi. Biz minglab millatlar orasidagi qadrimiz, o’rnimizdan voqif bo’lamiz. Buyuk ajdodlarimizni tanish, ular bilan iftixor etish, ularga munosib bo’lishdek shirin va yoqimli tuyg’ular vujudimizni qoplaydi. Ayni paytda insoniyat Borliqning yaktan, yakdil bir vujudi, yagona hokimi sifatida o’z-o’zini takomillashtirib borishga, dunyoni obod va farovon qilishga mahkum va mas’ul ekanligi ham anglashiladi.

Zero, muhtaram prezidentimiz takidlaganlaridek: ***“Inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib, tug’ilib o’sgan yurtga ham muhabbat shu qadar yuksak bo’ladi”***. Darvoqe, ustoz adabiyotshunos Najmiddin Komilovning “Tafakkur karvonlari” nomli kitobi ham o’zligimizni anglashga qaratilgan buyuk chorlov, ma’naviy obida desak adashmaymiz. Yetuk olimlarning Sharq adabiyotiga qo’yan e’tiqodi komparavist adabiyotshunoslar yuzini ham Sharqqa o’girdi. Endilikda xolis niyatli olimlar “yevropasentrizm”ning g’ayriilmiy mohiyatini ochib tashlash bilan kompravistikaning ob’yektiv ilmiy xulosalarga asoslangan yangi metodini ham ishlab chiqdilar. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, insoniyat jamiyati taraqqiyoti doimiy yangilanish, o’sishni boshdan kechirgan. Har bir madaniy ko’tarilish o’zigacha bo’lgan yutuqlarni jamlagan, boyitgan va yangi-yangi oqimlarni birlashtirib, olg’a siljishda davom etgan. Taraqqiyot tarixiga Sharq va G’arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo’shib kelganlar. Jahon xalqlari orasidagi iqtisodiy ham madaniy aloqa tobora rivojlana borgan va u hozirgi paytda yangi kuch bilan mustahkamlanmoqda. Ammo bunda zamonlar o’tishi bilan adabiy-madaniy bog’lanishlar xarakteri, mazmuni o’zgarib turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Jumladan o’rta asrlar madaniyatini yuksaltirishda Sharq yetakchi bo’lib, tashabbusni o’z qo’lida saqlagan ekan, keying davrga kelib, G’arb oldinga o’tib oldi.

Shunday qilib, Sharq G'arb adabiy-madaniy aloqalari juda kata davrni qamrab oluvchi ko'p tarmoqli sohadir. Talay tadqiqotlar bitilib, muhim muammolar yoritilgan bo'lsa-da, bu borada hali ham bir qadar hamda ayrim masalalar puxta o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotchilar umumiy masalalar ustida mulohaza yuritish bilan cheklanmoqdalar. Konkret davrlar, mamlakatlar, adabiyotlar, alohida yozuvchilar ijodi, muayyan asar ustida ana shu masala yuzasidan har taraflama teran olib borilgan tadqiqotlar benihoya kam, deb aytadi Najmiddin Komilov . Va ushbu kitobda olim Sharq va G'arb munosabatlarini davrlashtirish masalasini ham dolzarb vazifa sifatida e'tirof etdi.

“Tafakkur karvonlari” kitobni mutolaa etib, u haqidagi mulohozalarni o'rganar ekanmiz beixtiyor quyidagi fikrlar shuurimizni band etadi.

“Tafakkur karvonlari” – o'zligimizni o'zimizga tanitgan kitob. “Tafakkur karvonlari” – ko'hna dunyo zulmatlarini ma'rifat nuri bilan yoritgan daholar haqida yodnoma.

“Tafakkur karvonlari” – buyuk ajdodlarimiz bilan ne chog'lik faxr etmoqqa haqli ekanimizni ilmiy asoslagan qomus.

“Tafakkur karvonlari” – porloq kelajak vorislari, yoshlar yo'lini yoritguvchi mash'al.

“Tafakkur karvonlari” – o'tmish va kelajakni bog'lovchi muhtasham ko'prik – ma'naviy obida.